

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Tillaboyeva Muvazzam Baxtiyorovna

Farg'ona davlat universiteti

Huquqshunoslik fakulteti Yu.f.f.d., katta o'qituvchi.

Jo'rayev O'zbekxon Dilshodbek o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, Huquqshunoslik fakulteti,

Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Telefon: +998908451200 E-mail: jurayevxofiz@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20554141>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ekologik huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlikni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida amaldagi Ma'muriy javobgarlik va Jinoyat kodeksi normalarining samaradorligi tizimli o'rganildi. Muammoning hududiy jihatlarini hal etishda professor Yusufjon Ahmadaliyevning qarashlariga tayanildi. Ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurashda majburiy restitutsiya choralarini kuchaytirish bo'yicha mualliflik takliflari ilgari surildi.

Kalit so'zlar: Ekologiya huquqi, yangi Konstitutsiya, ekologik huquqbuzarlik, yuridik javobgarlik, Ma'muriy javobgarlik kodeksi, Jinoyat kodeksi, Yusufjon Ahmadaliyev, ekologik restitutsiya, zararni qoplash, huquqiy takomillashtirish.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРАВОНАРУШЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы совершенствования юридической ответственности за экологические правонарушения в Республике Узбекистан. В исследовании системно изучена эффективность норм Кодекса об административной ответственности и Уголовного кодекса. В решении территориальных аспектов проблемы авторы опираются на взгляды профессора Юсуфжона Ахмадалиева.

Выдвинуты авторские предложения по усилению мер обязательной реституции в борьбе с экологическими правонарушениями.

Ключевые слова: Экологическое право, новая Конституция, экологическое правонарушение, юридическая ответственность, Кодекс об административной ответственности, Уголовный кодекс, Юсуфжон Ахмадалиев, экологическая реституция, возмещение ущерба, правовое совершенствование.

ISSUES OF IMPROVING LIABILITY FOR ECOLOGICAL OFFENSES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. This article analyzes the issues of improving legal liability for ecological offenses in the Republic of Uzbekistan. Within the research, the effectiveness of the Administrative Liability and Criminal Codes was systematically studied. In solving territorial aspects, the study relies on Professor Yusufjon Akhmadaliyev's views. Author's proposals on strengthening mandatory restitution measures were put forward.

Keywords: *Environmental law, new Constitution, ecological offense, legal liability, Code of Administrative Liability, Criminal Code, Yusuffjon Akhmadaliev, ecological restitution, damage compensation, legal improvement.*

Kirish. Bugungi kunda global iqlim o'zgarishlari, cho'llanish jarayonlari va tabiiy resurslarning keskin qisqarishi fonida ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasi zamonaviy fanning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida har bir shaxsning qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqi hamda davlatning shahar va qishloqlarda ekologik jihatdan qulay sharoitlarni yaratish majburiyati qat'iy belgilab qo'yildi. Shunga qaramay, amaliyotda moratoriy talablarini buzgan holda ko'p yillik daraxtlarni noqonuniy kesish, sanoat korxonalari tomonidan chiqindilarni atrof-muhitga me'yordan ortiq oqizish kabi ekologik huquqbuzarliklar hamon davom etmoqda. Amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks hamda Jinoyat kodeksidagi mavjud sanksiyalar ko'p hollarda preventiv (huquqbuzarlikning oldini olish) funksiyani to'liq bajara olmayapti.

Ushbu muammoning ijtimoiy-ekologik va hududiy jihatlarini tizimli tadqiq etishda professor Yusuffjon Ahmadaliyevning geografik va etnoekologik konsepsiyalari fundamental ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Professor Y.I. Ahmadaliyev o'zining ilmiy tadqiqotlarida, xususan, "*Etnoekologiya*" monografiyasida har bir hududning o'ziga xos ekologik muvozanatini saqlashda faqatgina ma'muriy-huquqiy ta'qiqlar yetarli emasligini, balki aholining an'anaviy tabiaddan foydalanish ko'nikmalari va hududiy ekologik madaniyatini inobatga olish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Olimning yondashuviga ko'ra, xalqimizning ko'p asrlik tarixiy tajribasida shakllangan etnoekologik qadriyatlar (suvni asrash, tuproq undorligini saqlash, yashillikni ko'paytirish) o'z davrida hududiy ekologik barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omil bo'lgan.

Binobarin, bugungi kunda ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqishda faqat huquqiy jazo choralariga tayanmasdan, professor Y.I. Ahmadaliyev ilgari surgan hududiy-ekologik yondashuvlarni hisobga olish lozim.

Bizning fikrimizcha, amaldagi ekologiya huquqi tizimiga taklif etilayotgan yuridik javobgarlik mexanizmlari jamiyatda shunchaki jazo qo'rquvini uyg'otishga emas, balki hududiy darajada fuqarolarning ekologik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishi shart. Buning uchun qonunchilikda ekologik huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan majburiy kompensatsiya undirish bilan birga, ularning zimmasiga yetkazilgan zararni qayta tiklash (masalan, kesilgan daraxt o'rniga yangi ko'chatlar o'tqazish va ularni parvarishlash) majburiyatini yuklovchi "restitutsiya" choralarini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Zero, huquqiy normalar Ustoz o'z asarlarida ta'kidlagan tabiiy muhit va inson o'rtasidagi uyg'unlik hamda etnoekologik muvozanatni huquqiy jihatdan himoya qilishga qaratilmog'i lozim.

Ekologiya huquqining ekologiya va tabiatni muhofaza qilish yo'nalishida faoliyat olib borayotgan boshqa soha va tarmoqlardan farqli tomoni — ekologik talablarni buzgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan yuridik javobgarlik choralarini qo'llashi hamda davlatning majburlov kuchidan foydalanishni yo'lga qo'yishi mumkinligidir.

Bunday javobgarlik choralarining qo'llanishi natijasida ekologik qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan muayyan jazo beriladi, atrof-tabiiy muhitga yetkazilgan zararlar qoplanadi va fuqarolar jazo qo'llanishi tahdidi bilan ekologik huquqbuzarliklar hamda jinoyatlardan tiyilib turadilar.

Ijtimoiy javobgarlikning bir turi sifatida yuridik javobgarlik amaldagi huquqiy normalarda belgilanadi va davlatning majburlash kuchini qo'llash imkoniyati borligi bilan tavsiflanadi.

Yuridik javobgarlik deganda, huquq normalarini buzganlik uchun jazo choralari qo'llash oqibatida huquqbuzarga nisbatan salbiy huquqiy oqibatlar tug'dirish va davlat tomonidan huquq talablarini bajarishga majbur etish tushuniladi.

Ekologik qonunchilikni buzganlik uchun yuridik javobgarlikni qo'llashning quyidagi o'ziga xos jihatlari mavjud:

Ekologik huquqbuzarliklar oqibati har doim ham darhol namoyon bo'lmaydi, balki ma'lum muddat o'tgandan so'ng yuzaga chiqishi mumkinligi;

Bioresurslarga yetkazilgan zararni maxsus taksa uslubi asosida undirish imkoniyati mavjudligi;

Qonunchilikda maxsus jazo choralari, ya'ni tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatib turish va undan mahrum qilish choralari qo'llash imkoniyati borligi va boshqalar.

Ekologik javobgarlik bo'yicha ijtimoiy munosabatlar ekologik huquqbuzarlik sodir etilganda vujudga keladi. Ekologik huquqbuzarlik — bu atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzuvchi aybli, noqonuniy harakat yoki harakatsizlikdir. Ekologik huquqbuzarlik sodir etilganda atrof-tabiiy muhitga hamda u orqali inson salomatligiga zarar yetkaziladi yoki zarar yetkazish xavfi tug'iladi.

Ekologik huquqbuzarliklar obyekti atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha belgilangan huquqiy tartib hisoblanadi. Ekologik huquqbuzarliklarning subyekti esa ushbu huquqbuzarlikni sodir etuvchi yuridik va jismoniy shaxslardir.

Ekologik huquqbuzarlikning obyektiv tomoni xatti-harakatning noqonuniyligi, ekologik zarar yetkazish yoki yetkazish xavfi tug'ilishi hamda ekologik munosabatlar boshqa subyektlarining huquq va manfaatlari buzilishi, shuningdek, ushbu xatti-harakat bilan vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish bilan ifodalanadi.

Ekologik huquqbuzarlikning subyektiv tomoni deganda huquqbuzarning aybi tushuniladi.

Huquqbuzarning aybi qasddan yoki ehtiyotsizlik shaklida vujudga kelishi mumkin.

Ekologik huquqbuzarlik qasddan sodir etilayotganida huquqbuzar taqiqlangan qoidani yoki bajarishi lozim bo'lgan majburiyatni atayin buzadi yohud bajarmaydi. Bunda u o'z xatti-harakatlari natijasida zararli oqibatlar kelib chiqishini biladi hamda ongli ravishda unga yo'l qo'yadi. Masalan, tegishli ruxsatnomasiz ov qilish yoki moratoriy talablariga zid ravishda daraxtlarni kesish va boshqalar.

Ekologik huquqbuzarlik o'zining xavflilik darajasiga qarab jinoiy, ma'muriy, fuqarolik (mulkiy) huquqbuzarlik hamda intizomiy xatti-harakat tarzida bo'lishi mumkin. Ekologik huquqbuzarliklar uchun tegishli intizomiy, moddiy, ma'muriy, jinoiy hamda fuqarolik-huquqiy (mulkiy) javobgarlik turlari qo'llaniladi. Bundan tashqari, ekologik huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarning tabiiy resurslardan foydalanish huquqi cheklanishi, to'xtatib turilishi va ushbu huquqdan butunlay mahrum etilishi ham qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan.

Ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik amalda ko'p qo'llaniladigan javobgarlik turidir. Ma'muriy javobgarlikka tortishga ma'muriy huquqbuzarlik asos bo'ladi.

Qonun hujjatlarida ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g_ayri huquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik deyiladi.

Ekologik huquqbuzarliklar uchun O'zbekiston Respublikasining —Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llanilishi belgilab qo'yilgan:

- jarima, kodeksning 25-moddasiga asosan qo'llanilib, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga qonunda belgilangan miqdorda pul undiriladi;

- ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bolgan ashyoni (ov quroli, to'r, qayiq ...) musodara qilish jazosikodeksning 27-moddasi asosida qo'llaniladi. Kodeksning 261-moddasi ikkinchi qismi hamda 342-moddasiga muvofiq, ov qilish qoidalarini qo'pol ravishda buzilgan taqdirda ov qilish qurollari, noyob yoki yo'q bo'lib ketish xavfida turgan hayvonlarni yo'q qilib yuborish, yoxud ushbu moddada ko'zda tutilgan boshqa huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda, shu huquqbuzarliklarni sodir etish quroli bo'lgan ashyolar musodara qilinadi;

Maxsus huquqdan mahrum etish: Kodeksning 28-moddasi va 90-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, ov qilish qoidalarini qo'pol ravishda buzgan hollarda, ov qilish huquqidan o'n besh kundan uch yil muddatgacha mahrum etilishi mumkin;

Ma'muriy qamoqqa olish: Uch sutkadan o'n besh sutkagacha muddatga qo'llanilib, kodeksning 29-moddasida nazarda tutilgan. Ma'muriy qamoqqa olish chorasi homilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxslarga, o'n ibtidoiy sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Ushbu kodeksning 29¹-moddasida chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish, 29²-moddasida karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash masalalari ko'rib chiqilgan.

Mazkur kodeksning 60-moddasi tabiiy resurslarga egalik huquqini buzish masalasiga qaratilgan. Unga ko'ra:

Yerdan, suvdan, o'simlik yoki hayvonot dunyosidan o'zboshimchalik bilan foydalanish yoxud yerga va boshqa tabiiy resurslarga (bundan yer osti boyliklari va yer osti suvlari mustasno)

egalik huquqini bevosita yoki yashirin shaklda buzuvchi bitimlar tuzish yoki boshqa harakatlar sodir etish, tabiatdan maxsus foydalanish huquqini boshqalarga berish:

Fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish, shu jumladan, ushbu yer uchastkalariga nisbatan qonuniy huquqlari mavjud bo'lmagan holda ulardan foydalanish:

Fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari, mansabdor shaxslarga esa — ellik baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan, ajratilgan yer uchastkasiga tutash bo'lgan va tutash bo'lmagan yer uchastkalarida qurilish ishlarini amalga oshirish:

Fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravari, mansabdor shaxslarga esa — uch yuz baravari miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasining qaytarilishini ta'minlasi va o'zboshimchalik bilan egallab olishning oqibatlarini bartaraf etsa, javobgarlikdan ozod etilishi belgilab qo'yilgan. Kodeksning 60¹-moddasi sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rmaslikka bag'ishlangan. Sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachi tomonidan choralar ko'rilmaganligi, shu jumladan, yer uchastkasi o'zboshimchalik bilan egallab olinganligi fakti to'g'risida vakolatli organlar xabardor etilmaganligi — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari, mansabdor shaxslarga esa — ellik baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'lishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida ekologik huquqbuzarliklar uchun alohida bob ajratilgan. Bu 8-bob bo'lib, "Tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik" deb nomlanadi hamda unga 65–96-moddalar kiritilgan. Shuningdek, ekologik standartlarni yoki ekologik sertifikatlashtirishga oid normalar (212, 214-moddalar) ham kodeksda keltirib o'tilgan.

Ma'muriy huquqbuzarliklarni huquqiy munosabatlar obyektiga qarab shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

Yerga oid huquqbuzarliklar: Kodeksning 60, 65, 68¹, 69-moddalarida berilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: yerdan o'zboshimchalik bilan foydalanish; yer bilan bog'liq bo'lgan g'ayriqonuniy bitimlar tuzish; yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish; yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallash; yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga keltirish; yerlarni kimyoviy va radioaktiv moddalar hamda oqova suvlar bilan ifloslantirish; yer berish tartibini buzish, xuddi shuningdek, fermer yoki dehqon xo'jaligi yuritish uchun, yakka tartibda uy-joy qurish va turar-joy binosiga xizmat ko'rsatish, jamoa bog'dorchiligi va polizchiligi uchun fuqarolarga yer berilishiga to'sqinlik qilish; yer tuzish loyihalaridan o'zboshimchalik bilan chetga chiqish; davlat yer kadastri qoidalarini buzish; yerdan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni buzib ko'rsatish; axborotlarni berishdan bo'yin tovlash yoki noto'g'ri

axborot berish; egalikdagi va foydalanishdagi yerlarning chegara belgilarini, oʻrmonlardagi cheklov belgilarini yoʻq qilish yoki shikastlantirish.

Yer osti boyliklariga oid huquqbuzarliklar: Kodeksning 60, 70, 70¹, 70², 71-moddalarida belgilangan boʻlib, ular quyidagilardir: yer osti boyliklaridan oʻzboshimchalik bilan foydalanish; yer osti boyliklariga nisbatan mulk huquqini buzish va ulardan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga berish; foydali qazilmalar joylashgan maydonlarga oʻzboshimchalik bilan imoratlar qurish; foydali qazilma konlarini tabiatni muhofaza qilish va kon nazorati organlari bilan kelishmay turib ishga solish; yer osti boyliklaridan foydalanish talablari va tartibini buzish; yer osti boyliklarini muhofaza qilish hamda tabiiy muhit, binolar va inshootlarni yer osti boyliklaridan foydalanish bilan bogʻliq boʻlgan ishlarning zararli taʼsiridan muhofaza qilish qoidalarini buzish.

Zararli taʼsiridan muhofaza qilish talablarini bajarmaslik, yer osti suvlari rejimini kuzatish uchun qazilgan quduqlarni, marksheyderlik va geologik belgilarni yoʻq qilish yoki shikastlantirish, xuddi shuningdek, yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilar tomonidan umumtarqalgan foydali qazilmalardan foydalanish qoidalarining buzilishi, yer osti boyliklarini geologik jihatdan oʻrganish ishlarini olib borish qoidalar va talablarini topilgan foydali qazilmalar zaxiralariga yoki foydali qazilmalar qazib olish korxonalari, shuningdek, foydali qazilmalar qazib olish bilan bogʻliq boʻlmagan yer osti inshootlari qurish va ulardan foydalanish sharoitlariga notoʻgʻri baho berilishiga olib kelishi mumkin boʻlgan yoki olib kelgan tarzda buzish, yer osti boyliklarini keyingi geologik jihatdan oʻrganishda va konlarni ishga solishda zarur boʻlgan geologik hujjatlarni, foydali qazilma namunalari dublikatlarini va kernlarini yoʻqotib qoʻyish; daryolarning oʻzanlarini tozalashga va qirgʻoqlarini mustahkamlashga doir ishlarni amalga oshirish tartibini buzish; foydali qazilmalarni ruxsatnomasiz qazib olish.

Suvga oid huquqbuzarliklar: Kodeksning 60, 72–76-moddalarida belgilangan boʻlib, ular quyidagilardir: suvdan oʻzboshimchalik bilan foydalanish; davlatning suvga boʻlgan mulk huquqini buzish; suvdan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga berish; suvlarni ifloslantirish va bulgʻatish; korxonalar va boshqa obyektlarni suvlarning ifloslanishi va bulgʻanishi yoki ularning zararli taʼsirini oldini oluvchi inshootlar va qurilmalarsiz foydalanishga topshirish; yer osti suvlaridan foydalanish inshootlari va uskunalaridan foydalanish qoidalarini buzish; suvdan foydalanish meʼyorlari va limitlariga rioya etmaslik; gidrotexnika ishlarini oʻzboshimchalik bilan boshqarish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish; suvdan foydalanishning dastlabki hisobini yuritish va oqova suvlarning sifatini aniqlash qoidalarini, shuningdek, suv kadastri yuritish tartibini buzish va boshqalar.

Oʻrmonga oid huquqbuzarliklar: Kodeksning 60, 77, 79¹, 80, 81 va 84-moddalarida belgilangan boʻlib, ularga quyidagilar kiradi: oʻrmonlardan oʻzboshimchalik bilan foydalanish; oʻrmonlarga boʻlgan mulk huquqini buzish; oʻrmondan foydalanish huquqini boshqa shaxsga berish; kesiladigan oʻrmon fondidan foydalanish tartibini buzish; daraxtlar va boshqa oʻrmon oʻsimliklarini shikastlantirish yoki yoʻq qilish; oʻrmonlarni tiklash qoidalariga rioya etmaslik; oʻrmonlarda yongʻin xavfsizligi talablarini buzish, oʻsimlik dunyosi obyektlarini yigʻish, tayyorlash va ulardan foydalanish tartibi hamda shartlarini buzish va boshqalar.

Hayvonot dunyosiga oid huquqbuzarliklar: Kodeksning 60, 90, 92, 93-moddalarida belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardir: ov qilish yoki baliq tutish qoidalarini, shuningdek, hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlarini amalga oshirish qoidalarini buzish; hayvonlar yashaydigan muhitni muhofaza qilish qoidalarini buzish.

Ekologik huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik choralari bilan bir qatorda, sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan taqdirda jinoiy javobgarlik choralari ham qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining to‘rtinchi bo‘limi “Ekologiya sohasidagi jinoyatlar” deb nomlangan bo‘lib, uning tarkibidagi “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar” deb ataluvchi 14-bobida ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik normalari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ko‘rsatilgan ushbu jinoyatlarni quyidagicha uch guruhga bo‘lib tasniflash (M.Nurmatov, 2011) taklif etilgan bo‘lib, bunday yondashuv talabalar uchun ham o‘rganishga qulaydir:

Atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi jinoyatlarga quyidagilar kiradi:

Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (193-modda): Bunga ko‘ra, sanoat, energetika, transport, kommunal xizmat, agrosanoat, ilm-fan obyektlari yoki boshqa obyektlarni loyihalash, joylashtirish, qurish va ishga tushirib foydalanish normalari va qoidalarining mansabdor shaxs tomonidan buzilishi, yoxud davlat komissiyasining a‘zolari tomonidan bu obyektlarni normativ hujjatlarda belgilangan qoidalarini buzib qabul qilinishi insonning o‘limi, odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, ekologiyaga salbiy ta’sir qiladigan darajada atrof-muhitning o‘zgarib ketishiga yoki boshqacha og‘ir oqibatlarini keltirib chiqarsa — bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Atrof-tabiiy muhitning ifloslanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko‘rsatish (194-modda): Ya’ni, maxsus vakolatga ega mansabdor shaxslar tomonidan zararli ekologik oqibatlar keltirib chiqargan halokatlar yoki atrof-tabiiy muhitning radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriyaviy ifloslanganligi yoxud odam hayoti yoki sog‘lig‘i, tirik tabiat uchun xavfli bo‘lgan boshqacha tarzda ifloslanganligi haqidagi, yoxud aholi salomatligining holatiga doir ma’lumotlarning qasddan yashirilishi yoki buzib taqdim etilishi aholining ommaviy kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og‘ir oqibatlar keltirib chiqarsa — bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. O‘sha qilmishlar odam o‘lishiga sabab bo‘lsa — muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Atrof-tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko‘rmaslik (195-modda): Bunga ko‘ra, mansabdor shaxsning ekologiyasi ifloslangan joylarni dezaktivatsiya qilish yoki boshqacha tarzda tiklash choralarini ko‘rishdan bo‘yin tovlashi yoki bunday ishlarni yetarli

darajada bajarmasligi odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlar keltirib chiqarsa — bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. O'sha qilmishlar odam o'lishiga sabab bo'lsa — muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish (199-modda):

Ya'ni, o'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish og'ir oqibatlarga olib kelsa — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish (200-modda): Ya'ni, veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish hayvon yoki parrandalar epidemiyasi (epizootiya) tarqalishiga, ularning yalpi qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlar keltirib chiqarishiga sabab bo'lsa — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzish (204-modda): Ya'ni, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzish ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoki boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hudud yoki obyektlarni qasddan nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoxud boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi jinoyatlar. Ularga quyidagilar kiradi:

Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish (197-modda): Ya'ni, yer va yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rmalik (197¹-modda): Ya'ni, sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha, shu jumladan, yer uchastkasi o'zboshimchalik bilan egallab olinganligi fakti to'g'risida vakolatli organlarni xabardor etish bo'yicha yer egasi, yerdan

foydalanuvchi yoki ijarachi tomonidan choralar koʻrmaslik, shunday qilmish uchun maʼmuriy jazo qoʻllanilganidan keyin sodir etilgan boʻlsa — bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan toʻrt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Oʻsha qilmish:

a) takroran;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan boʻlsa — bazaviy hisoblash miqdorining toʻrt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u oʻzboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasining qaytarilishini taʼminlasa hamda oʻzboshimchalik bilan egallab olishning oqibatlarini bartaraf qilsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

Ekinzor, oʻrmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish (198-modda): Bunga koʻra, olovga ehtiyotsizlik bilan munosabatda boʻlish natijasida ekinzor, oʻrmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish koʻp miqdorda zarar yetkazilishiga yoki boshqacha ogʻir oqibatlarga sabab boʻlsa, oʻrmon yoki boshqa dov-daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesish koʻp miqdorda zarar yetkazilishiga sabab boʻlsa, ekinzor, oʻrmon yoki boshqa dov-daraxtlarga qasddan shikast yetkazish, ularni payhon qilish, nobud qilish koʻp miqdorda zarar yetkazilishiga sabab boʻlsa — bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ekinzorlarni, oʻrmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa oʻsimliklarni qasddan shikastlantirish, payhon qilish, nobud qilish koʻp miqdorda zarar yetkazilishiga sabab boʻlsa — bazaviy hisoblash miqdorining yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yetkazilgan moddiy zararining oʻrni uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qoʻllanilmaydi.

Hayvonot yoki oʻsimlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish (202-modda): Yaʼni, ovchilik, baliqchilik yoki hayvonot dunyosining boshqa turlarini ushlah qoidalari va noyob hayvonlarni tutishning belgilangan tartibi yoki shartlarini yoxud oʻsimliklarning dori-darmon, oziq-ovqat va manzarali (dekorativ) turlarini yigʻish yoki tayyorlash, shuningdek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi hayvonot va oʻsimlik olamidan foydalanish tartibini buzish — bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha qilmishlar:

a) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa — bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan to'rt yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmishlar:

a) xavfli retsidivist tomonidan;

b) shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalanib;

v) yerda, suvda yoki havoda ishlatiladigan mexanizatsiyalashtirilgan vositalardan foydalanib;

g) taqiqlangan qurollarni yoki vositalarni qo'llagan holda;

d) uyushgan guruh tomonidan;

e) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;

j) O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan hayvonot yoki o'simlik dunyosi turlarini nobud qilgan holda sodir etilgan bo'lsa — bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yetkazilgan moddiy zararining o'zni uch karra miqdorda, O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib borayotgan hayvonot hamda o'simlik dunyosi turlariga nisbatan yetkazilgan zararining o'zni esa besh karra miqdorda qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish (202¹-modda): Ya'ni, hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, ya'ni g'arazli yoki boshqa past niyatlarda ularni qiynoqqa solish yoxud ularga azob berish ularning o'limiga yoki mayib bo'lishiga olib kelsa, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa —

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha ozodlikni cheklash yoki olti oygacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish (203-modda): Ya'ni, suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi jinoyatlarga quyidagilar kiradi:

Atrof-tabiiy muhitni ifloslantirish (196-modda): Ya'ni, yerlarni ifloslantirish yoki buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. O'sha qilmishlar odam o'lishiga sabab bo'lsa — muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish (201-modda):

Ya'ni, xo'jalik faoliyatida o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, mineral o'g'itlar, o'sish biostimulyatorlari yoki boshqa kimyoviy dorilarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish odamlarning ommaviy kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoxud boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. O'sha harakatlar odam o'lishiga sabab bo'lsa — muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ekologik qonunchilikning manbalar tizimi

Bundan tashqari, yuqoridagi jinoyatlarning huquqiy va moddiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, Suv kodeksi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "O'rmon to'g'risida"gi, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi, "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi hamda "Chiqindilar to'g'risida"gi qonunlarida o'z aksini topgan. Ushbu qonun hujjatlarida belgilangan normalarning buzilishi bevosita Jinoyat kodeksining 14-bobida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlik sanksiyalarining qo'llanilishiga qonuniy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston Respublikasida ekologik huquqbuzarliklar va jinoyatlar uchun yuridik javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish hamda sohadagi huquqiy normalarning samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan mazkur ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi umumiy va konseptual xulosalarga kelindi:

Javobgarlik choralarining preventiv funksiyasi: Ekologiya huquqi tizimida amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks hamda Jinoyat kodeksining (14-bob) jazo sanksiyalari jamiyatda nafaqat qo'rquv uyg'otishga, balki fuqarolar va yuridik shaxslarda g'ayrihuquqiy harakatlardan tiyilish hissini (preventiv ta'sirni) shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ekologik huquqbuzarliklar oqibati ko'p hollarda darhol namoyon bo'lmasdan, ma'lum bir vaqt o'tgandan keyin yuzaga kelishi sababli, yuridik javobgarlik turlarini belgilashda prognozlashtirish va ekologik ekspertiza choralarini kuchaytirish zarur.

Qonunchilik bazasini tizimlashtirish: Ekologik munosabatlar obyektni samarali himoya qilish uchun Yer kodeksi, Suv kodeksi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi va "Chiqindilar to'g'risida"gi qonunlardagi moddiy

normalar hamda javobgarlik belgilangan sanksiyalar o'rtasidagi o'zaro nomuvofiqliklarni bartaraf etish lozim. Ayniqsa, yirik tadbirkorlik subyektlari tomonidan tabiiy resurslardan o'zboshimchalik bilan foydalanish yoki yerlarni kimyoviy-radioaktiv moddalar bilan ifloslantirish holatlarida moddiy jarimalar tizimini liberallashtirish emas, balki javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash talab etiladi.

Ekologik restitutsiyani joriy etish zarurati: Tadqiqot davomida aniqlandiki, ekologik zararni faqat pul (kompensatsiya) shaklida undirish buzilgan ekotizimni qayta tiklash uchun yetarli emas. Bizning fikrimizcha, qonunchilikda majburiy ekologik restitutsiya, ya'ni zararni tabiiy shaklda qayta tiklash (moratoriy davrida kesilgan har bir daraxt o'rniga 100 tup yirik ko'chat ekish va ularni 3 yil davomida majburiy parvarishlash tizimi kabi) normalarini barcha tabiiy resurslar, jumladan, suv obyektlari va yer osti boyliklarini muhofaza qilishda ham kengaytirilgan holda qo'llash amaliy jihatdan yuqori samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrir). – Toshkent: “O'zbekiston”, 2023.
2. Ahmadaliyev Yu. I. Ekologiya huquqi (o'quv qo'llanma). – Farg'ona: FarDU nashriyoti, 2024.-180 bet
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (Amaldagi tahriri). – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2026.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (Amaldagi tahriri). – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2026.